# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

10

2023




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati


74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982


1931 TDIU TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 714 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., TDU rektori
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dotsent
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Tabiat resurslari qo‘mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O‘zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O‘zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
**Ochilov Farxod,** O‘zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo‘limi boshlig‘i
**Eshov Mansur Po‘latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo‘yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., “O‘IRIAM” ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori
**Karimov Norboy G‘aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro “Nordik” universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori o‘rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musyeva Shoira Azimovna** SamDu IS instiiuti professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o‘qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
**Nomozova Qumri isoyevna** Geologiya fanlari universiteti “Iqtisodiy geologiya” kafedrasi dotsenti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o‘g‘li,** TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU huzuridagi PKQTUMOTMXHB mutaxassis

Ekspertlar kengashi:
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To‘lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti



Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

# MUNDARIJA


Qishloq xo'jaligida innovatsion xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy asoslari ........ 8
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** professor, **Zaynutdinova Umida Djalalovna,** dotsent

O'zbekiston-Turkiya do'stligi azaliy qadryatlarimiz zaminida yashab kelmoqda ........ 13
**O'sman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya-O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish ........ 15
**Akkulov Abdulaziz Uralboyevich,** mustaqil tadqiqotchi

O'zbekiston Respublikasini "Yashil" iqtisodiyotga o'tish istiqbollari. Muammolar va yechimlar ........ 19
**Mirzayev Bexruz Abdulla o'g'li,** doktorant

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda "Yashil" iqtisodiyotning o'rni ........ 26
**Sevara Yaxshimuratova Rustam qizi,** assistent-o'qituvchi

Sanoat barqarorligini ta'minlashda yashil energetikaning o'ziga xos xususiyatlari ........ 29
**Kadirov Abdumalik Matkarimovich**

Republikamizda "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirishda agroxizmatlarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari ........ 36
**Mirzayev Q. J.,** i.f.d., professor; **Jonuzokov M. K.,** assistent o'qituvchi

"Yashil" obligatsiyalarni muomalaga chiqarishning nazariy va amaliy jihatlari ........ 40
**E. I. Nosirov,** i.f.n., dotsent

Turizm sohasidagi loyihalarni kreditlash amaliyotini takomillashtirish ........ 46
**Matkabulova Dilorom Xalilullayevna,** PhD

Koreya Respublikasida yashil (eko) turizmning rivojlanish yo'nalishlari va muammollari ........ 51
**Islomova Dilrabo Salomovna,** kafedra assistenti

Moliyaviy menejment tizimini transformatsiyalashda raqamli marketing samaradorligini baholashning nazariy yondashuvlari ........ 55
**Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich,** PhD, dotsent

Samarqand viloyati ekologik turizm salohiyatidan samarali foydalanish asosida ekoturizm klasterlarini shakillantirish ........ 62
**Abduraxmanova Aqida Fayzulla qizi,** i.f.b.f.d.; **Axrorov Farxod Baxriddinovich,** i. f. n.; **Xo'jamov Bobur,** tadqiqotchi

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni ........ 68
**Dehqonov Burxon Rustamovich,** tayanch doktorant

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlanishiga global trendlarning ta'siri ........ 72
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** i.f.d., professor

Assessment of the Current State of the Market and Procedure For Lending to Subjects of Tourism Services of the Republic of Uzbekistan ........ 79
**Karimova Aziza Maxomadrizoyevna,** PhD, docent; **Maqsudov Orif Shakirovich,** assistant

Islomiy moliya instrumentlari (muzoraba va mushoraka) va ularni tijorat banklarida qo'llash ........ 84
**Madraximova Gulasal,** dotsent; **Safarova Nasiba,** magistrant

Mamlakatimizda "Yashil" iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashning o'ziga xos jihatlari ........ 90
**Mustafaqulov Yangiboy Bo'riqulovich, Todjimamatova Mashhura Erkinovna;**
**Nurmatova Hilola A'zamovna; Berdieva Aziza G'anisher qizi; Egamberdieva Oydin Abror qizi**

Ways to Improve the Green Recovery in Uzbekistan by Investment and Trade ........ 97
**Nurbek Khalimjonov,** assistant

Evaluating the Path Towards Sustainable Tourism Development in the Republic of Uzbekistan ........ 102
**Khusniddin Egamnazarov**

Nexus Between Climate Change and Energy Consumption in Uzbekistan: A Time Series Analysis ........ 106
**Sarvar Mamasoliyev; Shodiyor Toxirov**

O'zbekistonda mice turizmini barqaror rivovlanishida qulay infratuzilma ........ 112
**Xalimova F. N.,** katta o'qituvchi

Ichki turizmni rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llashning iqtisodiy afzalliklari ........ 115
**Matkarimov Jahongir Shamuratovich,** mustaqil tadqiqotchi

Agroturizmni rivojlantirish orqali hududlarning barqaror rivojlantirish imkoniyatlari ........ 122
**Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna,** kafedra dotsenti

Turizm sektorida milliy hunarmadchilik mahsulotlarining rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari ........ 126
**Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna,** kafedra assistenti

Роль религиозного туризма в экономике Узбекистана ........ 132
**Рахимова Дилфуза Мирзакасимовна,** преподаватель

Turistik sanoatining investitsion jozibadorligini boshqarish va samaradorligini baholash ........ 139
**Sa'dullayeva Gulnoza Sodiq qizi,** PhD


MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Turizmga innovatsiyon texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari ........ 144
**Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li,** doktorant
O'zbekistonning "yashil iqtisodiy strategiyasi" va uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari ........ 147
**Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich,** dotsent
An Analysis of the Structure of Trade Between China and Uzbekistan ........ 150
**Cao Gang,** PhD Candidate
"Daka-Tex" MCHJ XKning marketing faolyatining takomillashtirish ........ 160
**Musyeva Shoira Azimovna,** kafedra professori
Mamalakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda oziq-ovqat xavfsizligining o'rni ........ 164
**Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich,** PhD; **Shukurova Nilufar Qahramonova,** tadqiqotchi;
**Umirov Islombek Furkatovich,** tadqiqotchi; **Tojiqulov Samandar Orufjon o'g'li,** tadqiqotchi
MDH davlatlarida chorva va parandachilik o'sish dinamikasi ........ 169
**Abidov Abdujabbor Abduxamidovich,** t. f.n., dotsent
Tijorat banklarida foiz stavkaning likvidlilikka ta'siri ........ 179
**Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
O'zbekiston moliya bozorini jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvining dolzarb masalalari ........ 186
**Burxanov Aktam Usmanovich,** i.f.d., prof.; **Xudoyqulov Xurshid Xurramovich,** i.f.d., prof.
O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishiga oid ........ 191
**Ruzibayev Jahongir Nodirovich**
O'zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori hozirgi holati tahlili ........ 194
**Ro'ziqulov Abdimo'min Qussam o'g'li,** mustaqil izlanuvchi
Raqamli texnologiyalar orkali turizm industriyasini rivojlantirish usullari ........ 200
**R. P. Zarikeyev,** mustaqil doktorant
Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda inson resurslaridan foydalanish amaliyoti ........ 206
**Abdualimov Ashraf Qurbonaliyevich,** doktorant
Oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt shakli mablag'lari bo'yicha xarajatlar va ular hisobining amaldagi holati ........ 211
**Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna,** doktarant
O'zbekistonda oziq-ovqat bozori nazariy tahlili ........ 216
**Abduraxmanova Zuxra Toxir qizi,** doktorant
Sug'urta munosabatlarini takomillashtirishning istiqbollari ........ 221
**Abduturapova Dildora Farxodjon qizi,** doktorant
Functions of Management in Education and Its Significance ........ 231
**Akhatova Shakhnoza Akram kizi,** teacher
Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirishni yangicha usullarini o'rganishning ayrim dolzarb masalalari ........ 235
**Ametov Quvondik Mamatjanovich,** mustaqil izlanuvchi
Yog'-moy sanoati korxonalari kapitali rentabelligini oshirish yo'nalishlari ........ 238
**Amirzoda Hamrayev,** katta o'qituvchi
Banklararo to'lov tizimini raqamli iqtisodiyotdagi rolini oshirish choralari ........ 244
**Amonov Alisher,** o'qituvchi
Baholash faoliyatini raqamlashtirish istiqbollari ........ 248
**Bobirjon Aktamov,** katta o'qituvchi
Marketing xizmati samaradorligini baholashda PEST tahlil usulining ahamiyati va qo'llash imkoniyatlari ........ 253
**Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li,** katta o'qituvchi
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining vujudga kelish zarurati, umumiy hisobotlarining tuzilishi va O'zbekistonning MHXSga o'tishida vujudga keladigan muammolar va ularni bartaraf etishning istiqbolli yo'nalishlari ........ 259
**Djurayeva Iroda Bahrom qizi,** doktorant, o'qituvchi
Samaradorlikni korxona iqtisodiyotida tutgan o'rni ........ 265
**Fayziyeva Nilufar Shuxrat qizi,** PhD, katta o'qituvchi
Avtomobil transporti korxonalarida amortizatsiya xarajatlari va uning hisobini takomillashtirish masalalari ........ 269
**G'anibayev Ilxomjon Shokiraliyevich,** doktorant
Turistlar statistik hisobini olib borish bo'yicha xalqaro standartlar va tajribalar tahlili ........ 275
**Jumanova Zilola To'ychiyevna,** doktorant
Tijorat banklari ipotekali kreditlarining qaytuvchanlik holatini barqarorlashtirish choralari ........ 280
**Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li,** kafedra o'qituvchisi
Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ........ 284
**M. Samiyeva,** kafedra assisenti
Assessment of the Economic Effectiveness of the Railway Transport System ........ 288
**Mannonov Shahruhmirza Abdurashidovich,** independent researcher
O'zbekistonda mikromoliya tashkilotlarining iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish yo'llari ........ 294
**Nazarova Muslima Nazarovna,** PhD, i.f.f.d., katta o'qituvchi

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari......301
**Odilov Dilshodjon Tulqinovich**
O'zbekistonda paxtachilik majmuasining iqtisodiy samaradorligini oshirish......307
**Xoliqov Tolibjon Luptullaevich,** kafedra assistenti
Ta'lim tizimi boshqaruvida "time menejmenti" texnologiyalarini qo'llash......311
**Radjabova Gavxar Umarovna,** kafedra dotsenti
Improving Trade Effectiveness Through Merchandising: Theory and Practice......316
**Ravshan Aliyevich Allayorov,** Associate Professor
An'anaviy moliya tizimidagi yangi yondashuv va yechimlar......319
**Abrorov Sirojiddin,** PhD; **Bunyod Usmonov,** PhD
Ijtimoiy fondlar va maqsadli jamg'armalar faoliyatini takomillashtirish......325
**Samiyeva Gulnoza Toxirovna,** PhD, i.f.f.d.
Tikuv-trikotaj korxonalarining brend jozibadorligini marketing strategiyalari asosida oshirish......332
**Sh. Sh. Ziyayeva,** katta o'qituvchi
Surxondaryo mintaqasining ekoturizm salohiyati nuqtayi nazaridan baholash......337
**Soatov Yusuf Xo'jayor o'g'li,** mustaqil tatqiqotchi
Совершенствование учета неиспользованных основных средств в Республике Узбекистан......340
**Усманов Фаррух Обитжонович,** научный сотрудник кафедры
An'anaviy moliya tizimining metodologik muammolari, shuningdek moliya tizimida yuz beruvchi inqirozlar va ziddiyatli vaziyatlarning yuzaga kelish sabablari......348
**Xabibullayev Dadajon Ro'ziboyevich,** stajor tadqiqotchi
Dehqon xo'jaliklarida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirishda tomorqa xizmati klasterlarini takomillashtirish......355
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** kafedra professori; **Ochilova Nargiza Akramovna,** doktorant
Transport xizmatlari bozorida marketing faoliyatini mexanizmlarini rivojlanishining asosiy tamoyillari......360
**Nosirov Javlonbek Jamoliddin o'g'li,** doktorant; **Raxmatov Ziyodullo Nosirovich,** dotsent
BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida kambag'allikni qisqartirish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash masalalari......363
**Yusupov M. S.,** PhD
Мировые финансовые центры точки роста экономики......369
**Абдуллаев Анвар Фархадович,** PhD., доцент кафедры
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy ijtimoiy qarashlaridagi umumiylik va xususiylik......375
**Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich,** PhD
Математическое обоснование вычисления моды и медианы в статистике......379
**Бердикулова Ирода Райимкуловна,** старший преподаватель; **Усманов Шахзод Шохрухович,** студент
Yirik soliq to'lovchi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishda soliq ma'murchiligining istiqbollari......390
**G'aniyev Shaxriddin Vohidovich,** i. f. d., **Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich,** PhD
Sog'lomlashtirish turizmi klasterlari faoliyatida innovatsion faoliyatni boshqarishning kross-innovatsiyalar asosidagi modeli......395
**G'ofurov Azizbek Umarjonovich,** mustaqil tadqiqotchi
Tijorat banklari faoliyatidagi kredit risklarini boshqarishni takomillashtirish yullari......400
**J. Y. Isakov,** i.f.d, professor
Mehnat bozorining raqamlashgan iqtisodiyotdagi statistik masalalari......405
**A. Abduvohidov,** i. f.d., professor
Davlat oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobini yuritish......407
**Karayev Payzillaxon Yusufxonovich,** PhD
Актуальная ситуация в сегменте теновой экономики в Республике Узбекистан......412
**Кошанов Абдимурат,** независимый исследователь
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari......416
**Qurbonova Shaxrinoz,** doktorant
Erkin iktisodiy hududlarda investitsion faollikni oshirish masalalari......420
**Qilicheva Kamola Muzaffarovna,** mustaqil tadqiqotchi
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)......425
**Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich,** erkin izlanuvchi
Sug'urtada assistans xizmatlarini takomillashtirish......433
**Maxmudov A. M.**
Цифровизация бухгалтерского учета......439
**Мирсодикова Дилобар Дилшод кизи,** самостоятельный соискатель
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish......445
**Nasurova Kamola Ravshanovna,** PhD
Повышение эффективности депозитной политики в коммерческих банках......451
**Нуриллаев Рахмат Ярашевич,** к.с.х.н., доцент; **Нуриллаев Шердил Жамолиддин угли,** магистр

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Hufiyona iqtisodiyotni qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish mexanizmlari ....456
**Pardayev Ilhomjon G‘ulom o‘g‘li**
Uy-joy fondi boshqaruvini samarali tashkil etish ....460
**Berdiyeva Dilfuza Axatovna,** PhD, dotsent
Экономика знаний как высший ступень развития инновационной экономики ....466
**Хасанхонова Нодира Исаметдиновна,** PhD
Kichik biznes subyektlarini samarali investitsiyalashning ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi ....471
**Ruziyeva Dilobar Isomjonovna,** iqtisod fanlari nomzodi
Davlat-xususiy loyihalarining mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy asoslari ....481
**Suleymanov Farrux Raximjonovich,** mustaqil izlanuvchi
Комплексный анализ хозяйственно-экономической деятельности и устойчивости АО “Узавтосаноат” 487
**Туйчиев Комилжон Лазизович,** доцент кафедры
Экономическая сущность и важность повышения эффективности производства каракулеводческой продукции....493
**Тулкин Хайтмуродович Фармонов,** профессор; **Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич,** докторант
O‘zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari ....499
**O‘ktamova Nozima Narzulla qizi,** PhD, kafedra dotsenti
Инновационные методы энергосбережения как способ повышения конкурентоспособности предприятия ....503
**Хамдамова Гавхар Абсаматовна,** к.э.н.,профессор
Hudud sug‘oriladigan yerlarida suv resurslaridan foydalanish holati tahlili ....508
**Shoxujayeva Zebo Safoyevna,** i. f.n., professor, katta ilmiy xodim
Hududlarning moliyaviy-investitsion salohiyatini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari ....513
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** kafedra dotsenti i.f.d.
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xodimlar faoliyatining axborot tizimlarini samarali tashkil qilish....521
**Yuldashev Furqat Nurilloyevich,** doktarant
O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyoti sharoitida elektron biznesni rivojlantirish yo‘llari ....524
**Boboqulov Sanjar Baxronkulovich,** PhD; **Akramov G‘ayrat Otabek o‘g‘li,** talaba
An Analysis of Green Taxation and Its Effect on Economic Growth ....530
**Fayzieva Nargiza Rabimovna,** PhD
Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy jihatlari ....537
**Qurbonov Jasurbek Pozilovich,** kafedra dotsenti
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm industriyasining rivojlanishi va istiqboli ....540
**Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich,** PhD, kafedra dotsenti
O‘zbekistonda energetika korxonalari faoliyatida korporativ boshqaruvining baholash usullarini tahlili....544
**Abduraxmonova Zarina Muysinjonovna,** mustaqil tadqiqotchi
O‘rta Osiyo davlatlarida rekreatsiya turizmi....548
**Shaymanova Nigora Yusupovna,** doktorant
Korxona investitsiyalari xususidagi ilmiy-nazariy yondashuvlar va qarashlar evolyutsiyasi....552
**Eshqo‘ziyev Oxunjon Oybek o‘g‘li,** doktorant
O‘zbekiston sanoatining rivojlanish tendensiyalari, muammo va yechimlari....559
**Shavqiyev Erkin,** i. f. n.
“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish zaruriyati, dastaklari va uning o‘ziga xos tamoyillari .... 565
**Berdiyorov Baxtiyor Sodiqovich,** kafedra dotsenti
Innovatsion faoliyatni rivojlantiruvchi omillar va ulardan samarali foydalanish yo‘nalishlari .... 571
**Ashurov Maxammadjon Sotvoldiyevich,** i.f.n., kafedra dotsenti
Ijtimoiy tarmoqlar analitikasi.... 576
**S. Qulmatova,** PhD, dotsent
Analysing the Functioning of Enterprise Management in the Context of Institutional Reforms .... 581
**Kurpayanidi Konstantin Ivanovich,** Professor
Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini baholash .... 586
**Ruxsatova Rushana O‘ktamovna,** erkin tadqiqotchi
Soliq tushumlarini prognozlashtirish modellarini qurishning klassik va intellektual usullari .... 593
**Narmanov Ulug‘bek Abdugapporovich,** PhD; **Maqsudov Azamat Maqsud o‘g‘li**
Kompaniyani samarali boshqarishda marketingning o‘rni va uning tamoyillarini qo‘llash istiqbollari....598
**Usmonova Dilfuza Ilhkomovna,** kafedra dotsenti
Экономическая безопасность и факторы влияющие на неё.... 602
**Абдишукуров Шерзод Шавкат угли,** научный сосискатель
Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy manbalari bo‘yicha xarajatlar hisobi va uni takomillashtirish....608
**Artikov Kurbonazar Amonovich,** mustaqil ilmiy tadqiqotchi
Innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalarning ahamiyati.... 614
**Asamxodjaeva Shoira Shukurullaevna,** katta o‘qituvchi

Перспективы развития инноваций и роль стартапов: зарубежный опыт, проблемы и решения........................ 618
**Ачилова Ширин Шавкат кизи,** старший преподаватель
Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlashda garov ta'minotini takomillashtirish ......................... 622
**Bazarova Nigora Ravshanovna,** kafedra dotsenti
Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini boshqarish masalalari ........................................................ 627
**Kenjayev Ilhom G'iyozovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Organizational Factors Influencing Leadership Styles and Procurement Outcomes ............................................. 632
**Saidakhmedov Islomjon Uligbekovich,** Scientific researcher
Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'llari ..................... 637
**Mirpulatova Luiza Mansurovna,** doktorant
Tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarini kreditlash metodologiyasining ekonometrik tahlillari........................ 642
**Norov Akmal Ruzimamatovich,** DSc, kafedra professori
Tijorat banklarida kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo'llari ........................................................ 649
**Norova Nozima Nabiyevna,** katta o'qituvchi
Hufiyona iqtisodiyotni qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish mexanizmlari ............................. 657
**Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li**
Jahondagi kuzatilayotgan globallashuv va tabiatdagi o'zgarishlar oqibatida kelib chiqayotgan turli xatarlardan himoya qilishda sug'urta tashkilotlari oldida turgan vazifalar ("O'zbekinvest" EISK AJ misolida)............................ 661
**Sayfullo Mirzoyev**
International Experiences on Restoration of Financial Stability Through Indicators in Commercial Banking Sector........................................................................................ 666
**Solijonova Muxlisa Azamatovna**
Pensiya yoshining pensiya ta'minoti tizimiga ta'siri........................................................................ 668
**Tursunov Jaxongir Pulatovich,** DSc
Mamlakat iqtisodiyotini islom moliya instrumentlari orqali rivojlantirish istiqbollari................................................ 673
**Xalikov Ulug'bek Rustamovich,** PhD
Sug'urta kompaniyalari va tijorat banklari integratsiyalashuv jarayonini zarurligi va ahamiyati............................. 678
**Xudoyberdiyeva Sadoqat Abdumannonova,** mustaqil izlanuvchisi
Qishloq xo'jaligi korxonalarini davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning innovatsion menejment tamoyillari... 683
**Shaniyazova Zamira Oralbayevna,** PhD
Тенденции развития жилищного строительства........................................................................ 688
**Алиева Зилола Маматвалиевна,** доцент кафедры
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning innovatsion usullari.................................................... 692
**Shakirova Nigora Axralovna,** kafedra dotsenti v.b.
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'larining shakllanishi va nazorat qilinishi.............................................. 698
**Xusanov Nishonboy Abdusattarovich,** filologiya fanlari doktori, professor
Спиртные напитки - вред здоровью ........................................................................................ 702
**Кариева Халима Икромжоновна,** старший преподаватель кафедры
Importance of Social Infrastructure Development in Rural Areas ........................................................ 706
**Munisa Alimova**
Davlat xizmatida agile loyiha boshqaruvi texnologiyasidan foydalanish................................................... 709
**Isaqova Zebo Murodovna,** f.f.n. (PhD), tadqiqotchi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# O‘ZBEKISTON MOLIYA BOZORINI JAHON MOLIYA BOZORIGA INTEGRATSIYALASHUVINING DOLZARB MASALALARI





**Burxanov Aktam Usmanovich**
i.f.d., prof., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti dekani

**Xudoyqulov Xurshid Xurramovich**
i.f.d., prof., Moliya kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Maqolada moliya bozori rivojlanishining ilmiy-nazariy jihatlari tadqiq qilingan. Shuningdek, jahon moliya bozorida rivojlangan davlatlar fond bozorlarining kapitallashuv darajasi va O‘zbekiston fond bozori savdo aylanmasi dinamikasi tahlil qilingan hamda O‘zbekiston moliya bozorini jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvi jarayonlarini tezlashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliya bozori, integratsiya, kapitallashuv, fond birjasi, fond bozori aktivlari, qimmatli qog‘oz.

Abstract: The article examines the scientific and theoretical aspects of the development of the financial market. Also, the level of capitalization of the stock markets of developed countries in the world financial market and the dynamics of trading turnover of the stock market of Uzbekistan were analyzed, and proposals and recommendations aimed at accelerating the integration of the financial market of Uzbekistan into the world financial market were developed.

Key words: financial market, integration, capitalization, stock exchange, stock market assets, stock.

Аннотация: В статье рассматриваются научные и теоретические аспекты развития финансового рынка. Также проанализированы уровень капитализации фондовых рынков развитых стран на мировом финансовом рынке и динамика торгового оборота фондового рынка Узбекистана, а также предложения и рекомендации, направленные на ускорение интеграции финансового рынка Узбекистана в мировой финансовый рынок. были развиты мировой финансовый рынок.

Ключевые слова: финансовый рынок, интеграция, капитализация, фондовая биржа, активы фондового рынка, акции.

## 1. KIRISH

Moliya bozori har qanday mamlakatning umumiy bozorini tarkibiy, ammo, asosiy va alohida qismidir. Lekin, moliya bozorining asosi real tovarlar bozoridir. Bunda moliya bozori real iqtisodiyot va tovar bozorining ustqurmasi sifatida namoyon bo‘lishi bilan birga tovar bozori va iqtisodiyotni moliyaviy ta’minlaydi hamda muvofiqlashtiradi, umuman iqtisodiyotning obyektiv holatini ifodalaydi va rivojlanishini belgilaydi.

Xalqaro moliya bozorini rivojlantirish, bir tomondan, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismi bo‘lib, ikkinchi tomondan, milliy moliyaviy bozorlarning zamonaviy arxitekturasini shakllantirish, ularning segmentlarini va funksiyalarini kengaytirishning natijasi hisoblanadi.

So‘nggi yillarda qimmatli qog‘ozlar umumiy qiymatining o‘sishi asosan AQSh fond bozorining kapitallashuvini davom ettirish va Xitoy bozori fond bozorida sezilarli darajada yaxshilanishining natijasi bo‘ldi. Jahon fond bozorini kengayishining umumiy ko‘rsatkichlari, asosan, mamlakatlarning asosiy guruhlari tomonidan qimmatli qog‘ozlar emissiyasini taqsimlashda sezilarli farqlar mavjudligidir.

So‘nggi yillarda global IPO (Initial Public Offefing- birinchi ommaviy savdo) hajmining yarmidan ko‘pini rivojlanayotgan mamlakatlar fond birjalarida Xitoy va Gonkongda birjalarda o‘tkazildi. Mazkur birjalar IPO larni amalga oshirilishi, London va Nyu-York fond birjalari bilan yangi ro‘yxatlar bo‘yicha raqobatlasha boshladi. Mamlakatning moliya bozorini o‘rta va uzoq muddatda rivojlantirish bir qator asosiy omillar bilan belgilanadi, ya’ni ulardan biri “moliyaviy chuqurlik” (financial depth) hisoblanadi. Makroiqtisodiy darajada mamlakatning moliya bozorining chuqurligi odatda YaIMga nisbatan moliyaviy talab va majburiyatlar majmuasi sifatida belgilanadi va korporatsiyalar, uy xo‘jaliklari va davlat tashkilotlari o‘z faoliyatini moliya bozori va moliyaviy vositachilar orqali moliyalashtirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkich mamlakatning pul-kredit va moliyaviy vositalar bilan to‘ldirilganligini ta’minlash ko‘rsatkichlariga yaqin bo‘lib, shuningdek, moliyaviy arxitekturani rivojlantirishni nazarda tutadi. Jahon moliya bozorining bir qismi sifatida ayrim mamlakatlar yoki ular bozorlarining moliyaviy chuqurligini aniqlashda asosiy ko‘rsatkichlarning ikkita guruhi ishlatiladi:

- bank tizimining rivojlanish darajasi (tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar yoki depozitlar YaIMga);
- qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlanishining ko‘rsatkichlari (so‘ndiriladigan davlat qimmatli qog‘ozlari, munitsipal va korporativ obligatsiyalar va kapital bozorlarini kapitalizatsiya qilish), sug‘urta bozori YaIMga nisbatan.

Moliyaviy chuqurlik ko‘rsatkichining katta afzalligi, uning ko‘p qirrali ekanligi, bozor segmentlari nuqtayi nazaridan ham, ayrim mamlakatlarning yoki butun mamlakatning klasterlari va moliyaviy mahsulotlarning asosiy guruhlari uchun moliyaviy ahvolini tahlil qilish nuqtayi nazaridan juda aniq xalqaro taqqoslashni amalga oshirish qobiliyatidir. Shu bilan birga, iqtisodiyotda moliya bozorining o‘rnini yanada obyektiv baholash uchun moliyaviy chuqurlik koeffitsiyenti orqali iqtisodiyotda moliya bozorining alohida segmentlarini va uning alohida segmentlarini aks ettiruvchi ushbu ko‘rsatkichlar guruhini moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadigan kompaniyalar va jismoniy shaxslarning mavjudligi darajasi baholanishi kerak. Moliya bozorida ularning narxlarini, innovatsion komponentlarini, institutsional, tashkiliy va regulyativ o‘zgarishlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Shunday qilib, moliya bozorini chuqurlashtirish jarayoni asosan moliyaviy vositachilik institutlarining yetuklik darajasi bilan belgilanadi.

Rivojlanayotgan ko‘plab bozorlarning o‘sish sur’atlari, shuningdek, ularning moliyaviy tizimlarini rivojlanishi, YaIMning o‘sish sur’atlaridan orqada qolib ketmoqda, bu moliyaviy globallashishning to‘xtab qolishiga yetarlicha dalil bo‘la oladi. Moliya bozori rivojlanishining tahlili so‘nggi o‘n yilliklarda milliy moliya bozorlarining birlashtirilishi, ularni yanada mustahkamlash va oxir-oqibat misli ko‘rilmagan mobillik tizimining – kapital bozorining shakllanishini ko‘rish imkonini beradi. Bu jarayonlar pul birligi yaratilgandan va Yevropada yagona valyutani joriy etishdan keyin sezilarli darajada oshdi. Ushbu davrning eng muhim yutug‘i globallashuv moliyaviy integratsiyani rivojlantirishga hissa qo‘shgan va globallashuv maqsadlariga erishishga qaratilgan boshqa ko‘plab sa’y-harakatlar bilan birga global moliyaviy bozorning rivojlanishida eng muhim tendensiyalarni shakllantirishga yordam bergan inflyatsiya va byudjetlarning barqarorlashuvining sezilarli darajada pasayishi hisoblanadi.

## 2. ADABIYOTLAR SHARHI

Moliya bozori va uning rivojlanishi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, moliya bozorining zamonaviy ma’noda inglizcha “financial market” so‘zidan olingan bo‘lib, moliya bozori – bu qimmatli qog‘ozlar va obligatsiyalar kabi qimmatli qog‘ozlarni sotib olish yoki sotish mumkin bo‘lgan bozor hisoblanadi[1]. Ushbu termin birinchi bo‘lib 1963-yilda taniqli iqtisodchi Jeyms Tobin tomonidan qo‘llanilgan[2]. Biroq, o‘sha paytda moliya bozori pul bozori va kapital bozori bilan bog‘liq bo‘lmagan va ushbu termin keng tarqalmagan. 1973-yilda “The Encyclopedia Americana” ensiklopediyasida ham “financial market” so‘zi qayd etilmadi ammo, 1976-yilda Britaniyaning “The New Encyclopedia Britannica” ensiklopediyasida “financial market” so‘zi kiritilgan. Shubhasiz, moliya bozori terminining kirib kelishi pul bozori va kapital bozorini rivojlanishiga to‘g‘ri kelidi deb, 1974-yilda Ronald Robinzonning “Moliyaviy bozorlar: boylikni to‘plash va taqsimlash” asrida keltirib o‘tilgan[3].

Yevropada ushbu tushuncha Amerika moliya bozorining ta’siri ostida biroz keyinroq tarqaldi. 1960-yillarning oxirida Fransiyada “moliya bozori” tushunchasi (marche financier) ishlatila boshlangan, lekin ushbu termin pul bozorini ajratish maqsadida kapital bozor ma’nosida ishlatilgan[4].

1 Никитина Т. В., Репета-Турсунова А. В. Финансовые рынки и финансово-кредитные институты. Учебное пособие / Т. В. Никитина, А. В. Репета-Турсунова. – СПб. : Изд-во СПбГЭУ, 2014. – 115 с.

2 Tobin J. Financial Intermediaries and the Effectiveness of Monetary Controls / J. Tobin, W. Brainard // The American Economic Review. – 1963. – Vol. LIII, № 2 – P. 383–400

3 Robinson R. Financial Markets: The Accumulation and Allocation of Wealth / R. Robinson. – N. Y.: McGraw-Hill, 1974. – 512 p.

4 Никитина Т. В., Репета-Турсунова А. В. Н62 Финансовые рынки и финансово-кредитные институты: учебное пособие /

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Moliya bozorida o‘zaro ta’sirda bo‘ladigan mulk egalari bilan sarmoya, qarz oluvchilar o‘rtasidagi munosabatlarini tavsiflaydi. Moliya bozorida kreditlar, veksellar, aksiyalar, obligatsiyalar, investitsiyalar va boshqa turdagi qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdi va harakat obyekti hisoblanadi. Bozorlar o‘z qonuniyatlari asosida faoliyat ko‘rsatadi. Bu qonuniyatlarni bilish, ulardan oqilona foydalana olish, butun iqtisodiy, moliyaviy samarani oshishida katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunga kelib, moliya bozoriga dunyo olimlari tomonidan bir qator ta’riflar shakllantirildi. Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh.Sh. Shoh’azamiy ta’rifiga ko‘ra, moliya bozori – bu monetizatsiyalashgan real investitsion bazisga ekvivalent moliyaviy instrumentlar bilan bog‘liq tashkillashgan iqtisodiy-huquqiy mexanizm bilan ta’minlangan munosabatlarni maqsadli amalga oshiruvchi, iqtisodiyot subyektlari uchun zaruriy bozor sharoitlarini yaratib beruvchi majmua sifatida namoyon bo‘luvchi tizim. Ushbu tizim mexanizmi iqtisodiyotning barcha subyektlari tomonidan ularni har birining alohida manfaatli maqsadlari doirasida harakatga keltiriladi[5]. Xorij olimalaridan V.E. Chernova ta’rifiga ko‘ra, moliya bozori – doimiy harakatda bo‘lgan barcha pul resurslarining umumiy miqdori bo‘lib, ya’ni iqtisodiyotning turli subyektlari tomonidan ushbu resurslarga bo‘lgan talab va taklifning o‘zgarishi orqali joylashtirish va qayta taqsimlash hisoblanadi[6]. V. V. Uglinskaya va M. G. Xorunjinlar ta’rifiga ko‘ra, moliya bozori – maxsus institutlar yordami bilan moliyaviy aktivlarni investorlar o‘rtasida almashish mexanizmini samarali taqsimlash hisoblanadi[7]. Moliya bozori – bu qimmatli qog‘ozlar, obligatsiyalar, valyutalar va derivativlarni o‘z ichiga olgan bozor hisoblanadi[8].

Fikrimizcha, moliya bozori – muayyan institutsional infratuzilma, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan moliyaviy institutlar orqali moliyaviy aktivlarni shakllantirish va almashish bo‘yicha turli subyektlar o‘rtasida paydo bo‘ladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlar. Moliya bozorlarining mohiyati moliyaviy resurslarni iste’molchilar o‘rtasida tejashni samarali taqsimlash va maxsus moliyaviy institutlar orqali moliyaviy aktivlarni almashish mexanizmi hisoblanadi. Moliya bozorlarining maqsadi ixtisoslashtirilgan moliyaviy institutlar orqali moliyaviy almashinuvida savdo, to‘lov, hisob-kitob va boshqa tizimlar tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Shunday qilib, moliya bozorlari moliyaviy vositalarni sotib olish va sotish bo‘yicha bitimlar majmuasi sifatida ifodalanadi. Savdo, to‘lov va boshqa tizimlar texnologiyalari esa moliyaviy institutlar asosida amalga oshiriladi.

## 3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani yozishda induksiya, deduksiya, sintez kabi usullardan foydalanilgan. Dunyo mamlakatlar fondi bozori kapitallashuvi tahlili (2011–2020-yillar) Butunjahon birjalar federatsiyasining rasmiy sayti, O‘zbekiston fond bozori holati tahlili (2012–2022-yillar) esa, “Toshkent” Respublika fond birjasining rasmiy saytining statistik ma’lumotlaridan foydalanilgan.

## 4. TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Rivojlanayotgan davlatlarning global moliya bozorini rivojlantirish tendensiyalari bugungi kunda ham davom etmoqda, shunga qaramay, moliyaviy va qarz inqirozi (2007, 2008 va 2010-yy.) natijasida global moliyaviy tizimda mavjud bo‘lgan o‘zaro aloqalar tezkorlik bilan ishlagan, mashhur “domino effekti” global iqtisodiy ziddiyat tarixining eng qadimgi davrlariga kirib, transchegaraviy kapital oqimlaridagi kuchli oqimga olib keldi, uning hajmi inqirozgacha bo‘lgan davrning 60% darajasiga tushirildi. Shu bilan birga, dunyoning 200 dan ortiq mamlakatlarida moliyaviy inqiroz holatini tahlil qilish natijasida, hozirgi vaqtda rivojlanayotgan davlatlar – Xitoy va Hindiston hisobiga bozorlarning moliyaviy chuqurligini oshirish tendensiyasi mavjud.

Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy manfaatlariga mos bo‘lgan barqaror rivojlanish tendensiyalari (masalan, aktivlarni tovar aylanmasidan va “yomon” ipoteka va boshqa tuzilgan ishonchsiz aktivlarning katta qismi va shuning uchun zararlar)ni bartaraf etish oqibatida moliyaviy aktivlarning ayrim o‘sishlari sekinlashdi va moliyaviy sektorning nisbiy hajmidagi yuqori tendensiyaga mos keladi[9]. Moliyaviy globallashuv sharoitida moliya bozorlarini rivojlanishi uzoq kelajakda dunyoning istalgan joyidan va vaqtda ishtirok etish imkonini beruvchi xalqaro elektron birjani vujudga kelishini tahmin qilish mumkin. Lekin, yaqin kelajakda bunday elektron birja bilan birga fond birjalari ham parallel faoliyat yuritib rivojlanishi aniq. Bunga xalqaro o‘ttizlik guruhining 20 ta yaqin tavsiyasi asos bo‘la oladi. Hozirda jahon moliya bozorlaridagi qimmatli qog‘ozlarning aylanmasi xalqaro tovar aylanmasi hajmidan 60–70 barobar ko‘p, bu ko‘rsatkichning borgan sari ortib borishi tendensiyasini kuzatish mumkin. Bunda xalqaro (horijiy) portfel investitsiyalarining salmog‘i bevosita (to‘g‘ri-

Т. В. Никитина, А. В. Репета-Турсунова. – СПб. : Изд-во СПбГЭУ, 2014. – 14 с
5 Shoha’zamiy Sh. Sh. Moliya bozori va qimmatli qog‘ozlar. Darslik. -T., TFI, 2012.-b.265.
6 Чернова В. Э. Финансовые рынки: учебное пособие / СПбГТУРП. – СПб., 2015. 73 с.
7 Углинская В. В., Хорунжин М. Г. Финансовые рынки: Учебное пособие для студентов экономических направлений всех форм обучения / Рубцовский индустриальный институт. – Рубцовск, 2015. – 79 с.
8 https://www.investopedia.com/terms/f/financial-market.asp.
9 The New Dynamics of Financial Globalizaion, McKinsey Global Institute. August, 2018.

dan-to‘g‘ri) investitsiyalar va xalqaro kreditlar hajmidan sezilarli katta bo‘lib, bunga moliya bozorlarining iqtisodiyotdagi rolini oshib borishi, sekyuritizatsiya jarayonlari va moliya injiniringini tez sur’atlar bilan rivojlanishi sabab bo‘lmoqda. Dunyo rivojlangan mamlakatlarining fond bozorini tahlilini quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan (1-jadval).

1-jadval: Dunyoda rivojlangan mamlakatlar fond bozori kapitallashuvi dinamikasi, mlrd. doll. [10]

| Mamlakatlar | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| AQSh | 17283,5 | 15640,7 | 18668,4 | 24034,9 | 26330,6 | 25067,5 | 27352,2 | 32120,7 | 45293,1 | 37482,1 |
| Braziliya | 1545,6 | 1228,9 | 1227,4 | 1020,5 | 843,9 | 490,5 | 774,1 | 954,7 | 1187,4 | 988,4 |
| Xitoy | 4027,8 | 3412,1 | 3697,3 | 3949,1 | 6004,9 | 8188,1 | 7320,7 | 8711,3 | 12214,5 | 8515,5 |
| Germaniya | 1429,7 | 1184,5 | 1486,3 | 1936,1 | 1738,5 | 1715,8 | 1718,1 | 2262,2 | 2284,1 | 2098,2 |
| Euronext | 2930,1 | 2446,7 | 2832,2 | 3583,9 | 3319,1 | 3305,9 | 3463,8 | 4392,9 | 5443, 9 | 4701,7 |
| Angliya | 3613,1 | 3266,4 | 3396,5 | 4428,9 | 4012,9 | 3878,8 | 3467,4 | 4455,4 | 4045,6 | 4182,9 |
| Shveytsariya | 1229,3 | 1089,5 | 1233,4 | 1540,7 | 1495,3 | 1519,3 | 1414,7 | 1686,5 | 2001,6 | 1834,4 |

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, moliya bozorlarini o‘ta notekis rivojlanishi, raqobatni kuchliligi, alohida mamlakatlar ulushlarini barqaror emasligini ko‘rish mumkin. Industrial va rivojlanayotgan davlatlar hamda ularning moliya bozorlarini yillik kapitallashuv darajasi keskin farqlanadi. Bugungi kunda, Fransiya, Ispaniya, Gonkong, Indoneziya, Xitoy, Turkiya, Meksika, Hindiston va Rossiya kabi davlatlar o‘z salmog‘ini tez oshirgan. Bir qotor rivojlangan davlatlarda (Shveytsariya, Germaniya, AQSh) va ba’zi rivojlanayotgan mamlakatlarda (Braziliya, Hindiston) aksiyalar bozori rivojlanish sur’atlari barqaror oshib borgan. Lekin, 2020-yilda karonavirus pandemiyasi oqibatida mamlakatlarda investitsion faollik pasayishi tufayli deyarli barcha fond bozorlarida kapitallashuv darajasi kamaygan. Xususan, 2020-yilda 2019-yilga nisbatan Braziliya va Xitoy fond bozorlarida kapitallashuv darajasi mos ravishda 16,8 va 30,3 foizga pasaygan.

Moliya bozorini tendensiyalari negizida bir qator muammolar mavjudligini ko‘rish mumkin. Masalan, moliya bozorlari modellarining keskin farqlanishi, moliyaviy globallashuv jarayonlarini turli mamlakatlarda har xil kechishi, tashqi va ichki fundamental omillarning har xil mamlakatlarda turlicha ta’siri, mamlakatlar o‘rtasida bozor risklarining turlicha taqsimlanishi, jahon miqyosida iqtisodiy o‘sishni pasayishi moliya bozorini tendensiyasini o‘zgarishini ko‘rsatadi.

O‘zbekistondagi aksiyalar birja bozorining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning katta qismini davlat korxonalarini xususiylashtirish natijasida barpo etilgan aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog‘ozlarini birlamchi sotish bo‘yicha tuzilgan bitimlar tashkil etadi.

Mamlakatimiz fond bozorining “Toshkent” RFB uyushgan birja aylanmasi yildan yilga o‘sib borish tendensiyasiga ega (2-jadval).

2-jadval: “Toshkent” Respublika fond birjasi savdo aylanmasi[11], mlrd. so‘m

| Yillar | “Toshkent” Respublika fond birjasi savdo aylanmasi |
|---|---|
| 2012 | 170,7 |
| 2013 | 93,2 |
| 2014 | 297,6 |
| 2015 | 161 |
| 2016 | 299,8 |
| 2017 | 298,6 |
| 2018 | 687,3 |
| 2019 | 438,8 |
| 2020 | 578,15 |
| 2021 | 1260,51 |
| 2022 | 4705,79 |

2-jadvalgi ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, 2012-yilda fond birjasida savdo aylanmasi 170,1 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib u 27,6 barobarga, ya’ni 4705,79 mlrd. so‘mgacha keskin o‘sib ketgan.

10 World Federation of Exchanges (https://www.world-exchanges.org) ma’lumotlari asosida tayyorlangan.
11 “Toshkent” Respublika fond birjasining ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tayorlangan.

2020-yilda birja savdolarining yarmidan ko'pini (56,5%) banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish natijasida shakllandi.

Birja savdo aylanmasining keskin ortib ketishiga sabab, "Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ–2454-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 21-dekabrdagi qaroriga asosan korxonalarning ustav kapitalidagi davlat ulushi bo'lgan korxonalarning aksiyalari xorijiy investorlarga sotish va xorijiy investitsiyalarni jalb etilishi bo'ldi.

Qimmatli qog'ozlar birlamchi bozorining nol foizni tashkil etishiga asosiy sabab yagona dasturiy ta'minot kompleksi joriy qilinishi munosabati bilan birlamchi bozor depozitariy va birjadan tashqari "Elsis" savdo tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan. Natijada, aksiyadorlik jamiyatlarining emissiya qilingan aksiyalari birjadan tashqari fond birjasida amalga oshirila boshlandi.

## 5. XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston moliya bozorini jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvi jarayonlari quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq:

- O'zbekiston fond bozori fond birjasi rivojlangan mamlakatlardan dasturiy ta'minot, server va telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish, mahalliy mutaxassislarni o'qitish, bir yil davomida kafolatli xizmat ko'rsatish, qonunchilik bazasini takomillashtirishda ko'maklashishni o'z ichiga olgan Yagona dasturiy-texnik kompleksni olishi va joriy etishi zarur.
- Bugungi kunda moliya bozorini integratsiyalashuvini kuchaytirish maqsadida xususiy sektor investorlarini jalb qilish orqali moliyaviy manbalar xilma-xilligini ta'minlash maqsadga muvofiq.
- O'zbekiston Respublikasining moliya bozorida xorijiy investorlar ulushi o'ta past darajada bo'lib, buning sabablari ichki moliya bozori rivojlanmagani va kapital nazoratining mavjudligidir. Istiqbolda ichki moliya bozorining rivojlanishi va kapital nazoratining erkinlashtirilishi xorijiy portfel investorlarining oqimiga olib keladi. Ichki moliya bozorida xorijiy investorlar ulushining 40 foizgacha ortishi ijobiy jarayon sifatida tasniflanishi kerak.

Bugungi kunda, "Toshkent" Respublikasi fond birjasining aktivlarini baholashda bozor indeksi va aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari qiymatidan foydalansa bo'ladi. Lekin, istiqbolda mamlakatimiz fond birjasining rivojlanishi natijasida fond bozoridagi aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari bozor qiymatga faqat bozor indeksi orqali ta'sir qilmaydi. Mamlakatimiz fond bozoridagi aktivlarni baholashda yaqin kelajakda AQSh fond bozorida qo'llanilayotgan usullardan foydalanish, o'z navbatida, fond bozoridagi aktivlarni baholashning takomillashuviga olib keladi.

"Toshkent" Respublika fond birjasining aktivlarini baholashda fond bozori indeksini tabaqalashtirilgan holda yoki tarmoqlarga ajratilgan holda alohida indeksni joriy qilinishi lozim. Chunki, rivojlangan mamlakatlarda fond bozorlarida faqat yagona indeks yuritilmaydi, balki ma'lum tarmoqlar bo'yicha indekslar mavjud.

**Adabiyotlar:**


1. Никитина Т. В., Репета-Турсунова А. В. Финансовые рынки и финансово-кредитные институты. Учебное пособие / Т. В. Никитина, А. В. Репета-Турсунова. – СПб. : Изд-во СПбГЭУ, 2014.
2. Tobin J. Financial Intermediaries and the Effectiveness of Monetary Controls / J. Tobin, W. Brainard // The American Economic Review. –1963. –Vol. LIII, № 2.
3. Robinson R. Financial Markets: The Accumulation and Allocation of Wealth / R. Robinson. – N. Y.: McGraw-Hill, 1974.
4. Shoha'zamiy Sh. Sh. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. Darslik. -T., TFI, 2012.
5. Чернова В. Э. Финансовые рынки: учебное пособие / СПбГТУРП. – СПб., 2015.
6. Углинская В. В., Хорунжин М. Г. Финансовые рынки: Учебное пособие для студентов экономических направлений всех форм обучения / Рубцовский индустриальный институт. – Рубцовск, 2015.
7. https://www.investopedia.com/terms/f/financial-market.asp.
8. The New Dynamics of Financial Globalizaion, McKinsey Global Institute. August, 2018.
9. World Federation of Exchanges (https://www.world-exchanges.org) ma'lumotlari.
10. "Toshkent" Respublika fond birjasining ma'lumotlari.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 10**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.